

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA PODSHOH OBRAZI*FarDu Filologiya fakulteti 2-bosqich talabalari***Samiyeva Sevdogul****Yusubova Dilnoza**

Alisher Navoiy o'zining o'lmas asarlari orqali o'zbek adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan shoir hisoblanadi. Navoiy o'zining turkiy tilda yozilgan "Xamsa"si bilan minglab adabiyotga shaydo qalblarni zabt eta oldi va necha asrlar o'tgan bo'lsa ham to shu kungacha o'z hurmati hamda asarlarining qadr-qiyamati o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Navoiy asarlarining mavzu jihatdan rang-barangligi, hayotning deyarli barcha sohalarini o'z ichiga olgani bilan kishi jalb etadi. Xususan, asarlarining a'naviy obrazi hisoblangan podshoh obrazi har bir asarida turlicha tasvirlanadi, turlicha vazifani bajaradi va qahramonlar taqdiriga turlicha ta'sir o'tkazadi. Ba'zi asarlarida podshoh obrazi shon-shuhrat, sharaf, muhabbat uchun xizmat qilsa, yana boshqasida adolat, tarbiya bilan bog'liq axloqiy ma'nolarni ochib beradi. Yana ayrimlarida esa adolatsizlik, ilmsizlik kabi illatlarni fosh etish uchun xizmat qiladi.

"Saddi Iskandariy" dostonida qissalarda ham podshoh obrazi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. "Saddi Iskandar" qissasi Navoiyning podshohga bag'ishlangan qasidalaridan iboratdir. Asarda Iskandar podsho bo'lib, uning fikriyatiga bag'ishlangan tarixiy tavsiflar keng o'rin egallagan.

"Farhod va Shirin" dostonida Navoiy Chin davlatining xoqoni va uning farzandsizligi, farzand istagida ko'p jabr chekkani haqida bayon qiladi. Asar davomida farzand tilab oladi va maqsadiga erishadi. Ya'ni dostonning bosh qahramoni Farhodning tug'ilishi va u bilan bog'liq voqealar asardagi podsho obrazi, ishq asirining otasi bilan ham aloqador hisoblanadi. Asarda podsho obrazi adolatli, ilmi, har sohada o'z mahoratiga ega tasvirlangan, bundan tashqari farzandi kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan, ilm-fan o'rganish uchun keng yo'llar ochib bergan, farzandining ishqdan dod chekayotgani uchun qo'lidan nima kelsa bajargan mehribon ota sifatida ham tasvirlanadi.

Xuddi shu dostonida yana bir podshoh obrazi uchraydi. U Xusrav Parvezdir. Ammo bu obraz Chin xoqoniga teskari xarakterdagi qahramon hisoblanadi. Xusrav Navoiy dostonida salbiy obraz sifatida talqin qilinadi. Lekin dostondagi voqealar jarayonidagi holatlar yaxshilab kuzatilsa, bu obrazning ham o'z individualligi, o'ziga xos bir qancha jihatlari ochiladi. Xusravning Shiringa uylanish niyatining sababi shuki, unga (Xusravga)

valiahd – merosxo'r kerak edi. Chunki mulk ya'ni davlat unga "yetmish otadin" meros bo'lib kelayotgan, shunday ekan u ham yurtni munosib farzandga topshirish vazifasini ado etishi kerak edi. Garchi Xusrav bir necha marta uylangan, o'g'il farzandli bo'lgan bo'lsa ham, bu o'g'li taxt vorisi bo'lishga nolo'yiqlik edi. Buni asar davomida kuzatish ham mumkin:

Agarchi aqdi zavj aylab mukarrar,
Bo'lub erdi anga gavhar muyassar.
Va lekin ermas erdi loyiqi toj
Ki bo'lg'aylar anga toj ahli muhtoj.

Bu baytda Xusravning o'g'li Sheruya tasvirlangan. Xusrav o'g'li Sheruyani podshohlikka loyiq emasligini ko'ra olgan va bunday katta saltanatga munosib valiahd lozimligini, munosib valiahd uchun munosib ona lozimligini anglab, shu uchun harakat qiladi. Uning ishlari, qabul qilayotgan qarorlari ulug' podshohlarga xos. Shirinning ta'rifini eshitgach, uning ko'ngliga Shirin visoli tushadi. Darhol Shirin yurtiga yurish qilish fikriga tushadi. Ammo shohlik shavkatiga bunday yengil harakat to'g'ri kelmasligini anglab, vazirini jo'natadi. Mana shu holatdan ham uning aqlli, ishbilarmon ekanligini anglash mumkin. Ammo ko'ngil ishida aql, zakovat qalbga buyruq bera olmasligini Navoiy ushbu holatda ham keltirib o'tgan.

Doston davomida yana bir necha o'rinlarda Xusravning podshohona aql-zakovati, ishbilarmonligi ko'zga tashlanadi. Lekin yuqorida aytganimizdek, ishq masalasida podshohona tadbir, aqlning o'zi yetarli emas. Bu kabi holatlar, ayniqsa, Xusravning Farhod bilan to'qnashuvlarida, suhbatlarida namoyon bo'lgan. Xusravning aqli, tadbirli ekanligi podshohlarga xos bo'lsada, Farhodning ishq oldida xiralashib qoldi.

Navoiyning yana bir mashhur asarlaridan hisoblangan "Lison ut-tayr"da podshoh obrazi va ular himoyasidagi olimlar va san'atkorlar tasvirlangan. Ushbu asarida Navoiy podsho hayotiga va davlat boshqaruviga podshohning atrofidagi shaxslar ham dahldor ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Navoiy o'z asarlarida podshoh obrazini ideal hokim, adolatli, xalqni o'ylaydigan, jon kuydiradigan, tadbirli ishbilarmon, ilmiy va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan inson sifatida tasvirlaydi.